

TURK TILIDA MANSAB BILAN BOG‘LIQ YURIDIK TERMINOLOGIYANING TASNIFI

Djurayeva Zilola Djamolidinovna

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti stajyor-o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Zamonaviy dunyomizda jamiyatni nazorat qilish, tartib o‘rnatish uchun davlat tomonidan o‘rnatilgan qoidalarining ahamiyati ortib bormoqda. Bu nizom qadimdan mavjud bo‘lib, hozirgi kunga kelib o‘ta dolzarblik kasb etgan sohaga aylanib ulgurgan va davlatning barqaror rivojlanishida yetakchi tarmoqlardan biri sifatida qabul qilinmoqda, shu bilan birgalikda, tilshunoslikda ham alohida Yuridik lingvistikasi yo‘nalishi paydo bo‘lgan. Bu yo‘nalish o‘z navbatida yuridik sohaga oid terminlarni qamrab oladi va quyida ulardan mansabga oid terminlar tasniflandi.

***Kalit so‘zlar:** Yüksek Seçim Kurulu, Türk Ceza Kanunu, yargıtay, Anayasa Hukuku, kamu görevlisi.*

KIRISH

Jinoyat huquqi jinoiy javobgarlikka tortish asoslari va shartlari, jinoyat va jazo tushunchalari, ularning mohiyati, jinoyat huquqining institutlari va normalari, ularning amalda qo‘llanilishi va ahamiyati, jinoyatchilikka qarshi kurash natijalarini yaxshilash maqsadida jinoyat qonunini amalda qo‘llash tendensiyalari haqidagi g‘oyalar, fikrlar, qarashlar, konsepsiyalar va huquqiy bilimlar majmuini ifodalovchi yuridik fandir. Jinoyat huquqida asosan, jinoyat kodeksiga tayangan holda o‘z predmetini aniqlab oladi. Turkiya respublikasida ham jinoyat kodeksi o‘zining amaliy hududiga egadir. Ya’ni qaysi holatlarda jinoyat kodeksiga ko‘ra aybdor topilib jazolanishi aniq belgilab qo‘yilgan.

Turkiya Respublikasi Jinoyat kodeksida kishilar tasnif qilinadi. Bu tasnif bizga o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimizni yoritib berishda dasturulamal vazifasini bajaradi degan umiddamiz. Turkiya jinoyat kodeksiga ko‘ra kishilar quyidagicha tasnif etiladi:

- 1) Vatandaş – Fuqaro
- 2) Çocuk – Voyaga yetmagan shaxs
- 3) Kamu görevlisi – ma’murlar
- 4) Yargı görevlisi – Adliya xodimlari
- 5) Suçlu – aybdor
- 6) Mağdur – jabrlanuvchi
- 7) İtiyadi suçlu – bir yil ichida ikki marta jinoyat qilgan aybdor

8) Suçu meslek edinen – jinoyat yo‘li bilan pul ishlashni odat qilgan shaxs

9) Örgüt mensubu – biror bir jinoiy guruh a‘zosi yoki unga aloqador shaxs.¹

Bu bo‘limda biz yuqoridagi tasnifdan “*kamu görevlileri ve yargı görevlileri*” (*davlat ma‘murlari va adliya xodimlari*) haqida so‘z olib boramiz.

Kamu görevlisi tushunchasi bir qancha huquq sohasiga oiddir. Bu bilan birgalikda Turkiya huquqida barcha huquq sohalari uchun umumiy bo‘lgan *kamu görevlisi* atamasi izohiga o‘rin berilmagan. *Kamu görevlisi* tushunchasiga umumiy tarzda aniq izoh berilmaganidan turli xil jihatlardan bu tushunchaga turli xil ma‘nolar yuklanishiga sabab bo‘ldi. Misol uchun Yüksek Seçim Kurulu (Markaziy Saylov Komissiyasi) saylov huquqi jihatidan yondashadi va siyosiy vazifasi bo‘lganligi uchun vazirlarni “*kamu görevlileri*” safiga kiritishmaydi. *Yargıtay, bu kavramı daha çok ceza hukuku açısından yorumlamaktadır. Bu bakış açısının temelinde kamu görevlisi olarak cezalandırılması gerekenlerin hukuki boşluktan yararlanarak cezadan kurtulmalarını engelleme ve suçsuzların da haksız yere cezalandırılmalarına mani olma düşüncesi yatmaktadır. Yüksek Seçim Kurulu, konuya seçim hukuku açısından yaklaşmakta, yürütmenin siyasi kanadını teşkil eden bakanları, “memur veya kamu görevlisi” saymamaktadır. Bunun yanında Anayasa Mahkemesi, bu kavrama Kamu Hukuku ve özellikle Anayasa Hukuku yönünden açıklama getirmeye çalışırken, İdare hukukçuları da soruna kendi açılarından yaklaştırmaya çalışmaktadır*². (Oliy Sud bu tushunchani ko‘proq jinoyat huquqi nuqtai nazaridan izohlaydi. Bu nuqtai nazarning asosi davlat xizmatchisi sifatida jazolanishi lozim bo‘lgan shaxslarning qonuniy bo‘shliqdan foydalanib, jazodan qutulib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, begunohlarning nohaq jazolanishiga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyasidir. Oliy saylov komissiyasi masalaga saylov qonunchiligi nuqtai nazaridan yondashadi, ijro hokimiyatining siyosiy qanotini tashkil etuvchi vazirlarni “davlat xodimi” deb hisoblamaydi. Bundan tashqari, Konstitutsion Sud ushbu konsepsiyani Davlat huquqi va ayniqsa Konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qilsa, ma‘muriy huquqshunoslar muammoga o‘z nuqtai nazaridan yondashishga harakat qilishadi.)

Shu jihatdan *kamu görevlisi* tushunchasiga Jinoyiy huquqqa muvofik bir izoh keltirib o‘tmoqchimiz. Turkiya Jinoyat Kodeksiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, *kamu görevlisi* sifatida ommaviy faoliyatning yuritilishiga tayinlanish yoki saylanish yo‘li bilan yoki boshqa qonun nazarda tutgan yo‘llar bilan doimiy, muddatli yoki vaqtinchalik ishtirok etgan barcha shaxslar ta‘n olinadi. *Kamu görevlisi* deyiminden; *kamusal faaliyetin yürütülmesine atama veya seçilme yoluyla ya da herhangi bir*

¹Türk Ceza Kanunu. Madde-6,1.baskı. – Ankara.:2017. – S.

² Durmuş A.A. Memur.Disiplin.Hukuku,5.Bası. – Ankara.: Adalet Yayınevi,2009. – S.49.

*surette sürekli, süreli veya geçici olarak katılan kişi*³ (Davlat xodimi tushunchasi Jamoat faoliyatini amalga oshirishda doimiy yoki vaqtincha, tayinlash yoki saylash yoki boshqa biron-bir yo'l bilan ishtirok etuvchi shaxs) Ya'ni, omma bilan aloqada davlatni tamsil etuvchi mansabdor shaxslardir.

Shunday ekan davlat mansablaridan qaysi bir bunday vasfga to'g'ri keladi degan savol tug'uladi. 657-sonli "Davlat ma'murlari qonuni"ga muvofiq davlat xizmatchilari, davlatdan maosh olib biror bir vazifa bajaruvchi shaxslarni *Kamu görevlileri* ya'ni *ma'murlar* sifatida ko'rsatilgan. Yana ushbu qonunda kimlar ma'mur deb atalishi haqida umumiy tasnif va sinflar berilgandir. Davlat tashkilotlarida ijro, byuro va shunga o'xshash xizmatlarni bajarganlarni ma'mur deb atash yana ham to'g'riroq bo'ladi. "Bu Kanunun kapsamina dahil kurumlarda yönetim, icra, büro ve benzeri hizmetleri gören ve bu Kanunla tespit edilen diğer sınıflara girmeyen memurlar Genel İdare Hizmetleri sınıfını teşkil eder"⁴ (Ushbu Qonun doirasidagi muassasalarda boshqaruv, ijro, xizmat va shunga o'xshash xizmatlarni amalga oshiradigan va ushbu Qonunda belgilangan boshqa toifalarga kirmaydigan davlat xizmatchilari umumiy ma'muriy xizmatlar sinfini tashkil qiladi.) Ushbu qonunga ko'ra davlat ma'murlari quydagi guruhlariga bo'linadi:

- a) Teknik hizmetler sınıfı (Texnik xizmatchilar guruhi)
- b) Sağlık hizmetleri ve yardımcı sağlık hizmetleri sınıfı (Tibbiy xizmatlar va qo'shimcha tibbiy xizmatlar guruhi)
- c) Eğitim ve öğretim hizmetleri sınıfı (Ta'lim-tarbiya xizmatlari guruhi)
- d) Avukatlık hizmetleri sınıfı (Advokatlik xizmatlari guruhi)
- e) Din hizmetleri sınıfı (Din xizmatlari guruhi)
- f) Emniyet hizmetleri sınıfı (Xavfsizlik xizmatlari guruhi)
- g) Jandarma hizmetleri sınıfı (Jandarmeriya xizmatlari guruhi)
- h) Sahil güvenlik hizmetleri sınıfı (Soğliq xavfsizlik xizmatlari guruhi)
- i) Yardımcı hizmetler sınıfı (Yordamchi xizmatlar guruhi)
- j) Mülki idare Amirliği hizmetleri sınıfı (Fuqarolik boshqaruvi xizmatlari guruhi)
- k) Milli istihbarat hizmetleri sınıfı⁵ (Milliy razvedka xizmatlari guruhi)

Yuqorida keltirilgan guruhlar o'z navbatida mansab va unvonlarga bo'linadi. Misol uchun o'qituvchi toifasida dotsent, professor; shifokorlar toifasi hamshira, doktor kabi.

Endi bular nega jinoyat huquqiy terminlari ichidan joy olgan? Bunga sabab, bu ma'murlar xalq oldidagi vazifalarini yetarlicha bajarmasalar jinoiy javobgarlikka

³ Yuqoridagi qonun (5237). Madde 6. – S. 34.

⁴ Devlet Memurları Kanunu. Madde 36. //Resmi Gazete. №. 12056. – Ankara.:1965. –S. 36.

⁵ Yuqoridagi qonun (657). Madde 36. – S. 41.

tortilishadi-ki, bu huquq fani ichida o'rganilgani uchun biz bu haqida ma'lumotlarni ko'paytirsak, mavzudan chetlashishimiz mumkin.

Yuqorida mansab bilan bog'liq yana bir guruh yuridik terminologiyasini aytib o'tgan edik. Bu ham bo'lsa, "yargi görevlisi"dir-ki, biz ham ushbu bo'limda aynan shu mansabdor shaxslarga e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Chunki yuqorida aytib o'tgan mansab egalari jinoyat huquqida passivligi va qaror chiqarish yoki qaror chiqarishda ishtirok etish huquqiga ega emasdir.

*Yargı, egemenlik veya devlet adına hukuku yorumlayan ve ona başvuran mahkemeler düzenidir*⁶. 'Yargı – mustaqil yoki davlat nomidan huquqni izohlagan va unga murojaat qilgan mahkamalar tizimidir'. Bu sistemada ham yuqoridagi kabi mansab egalari bordir. Quyida ularni tanishtirib matnlarda keltirilishini ko'rib o'tamiz. Bu mansabdor shaxslar quyidagilardir:

Hakim – Sudya

Yazı işleri müdürü – Hujjat ishlari mudiri

Mübaşir – Sud ijrochisi

Avukat – Advokat

Dava takipçileri – Da'vo taqibchilari

Dava vekilleri – Da'vo vakillari

Savcı – Prokuror

Noter – Notarius

Zabıt Katibi – Sud kotibi⁷

Yuqorida keltirilganlar mansablar deyarli O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida ish olib boradigan mansabdor shaxslar bilan bir xil tartibda ish olib borishadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, Turkiya jinoyat kodeksiga ko'ra mansab bilan bog'liq atamalar ikki katta guruhga bo'linadi: jamoa mansabdor shaxslari, sud mansabdor shaxslari.

Bulardan birinchi guruh juda keng qatlamni qamrab olganligidan ularni atab keluvchi terminlar asosan xalqqa tanish va asosan turkcha so'zlardan tashkil topgandir. Ikki guruh esa jinoyat huquqini yuritilishida asosiy ro'l o'ynaydigan mansabdor shaxslardir. Bunday mansabdor shaxslarni bildiruvchi atamalar tarkibiga ko'ra turlichadir. Ya'ni, ular orasida lotincha, arabcha, turkcha ildizli so'zlar atama sifatida joy olgan. Bundan tashqari ushbu mansabdor shaxslar adabiy matnlarda o'ziga xos bir ko'rinish olgandir. Misol uchun sud ijrochisi qo'pol va jahldor, ovozi bilan insonlarni bir holatdan ikkinchi holatga osongina o'tkaza oladigan bir imij

⁶ <https://tr.wikipedia.org/wiki/Yarg%C4%B1>

⁷ Arslan Ç. Yüce Divan Olarak Anayasa Mahkemesi. – Nobel Yayın Dağıtım, 1999. – S. 38.

yaratgandir. Yuqorida turli xil kontekslarda bu mansabdor shaxlar yaratgan imijlarni tahlil qilishga harakat qildik. Bu orqali jinoyat kodeksida keltirilgan mansab bilan bog'liq terminlarni matnlar ustida tahlil qilishga urinib ko'rdik. Chunki, atamalar ma'lum fan yoki soha doirasidan chiqqanda paytda atamalik xususiyatiga qisman bo'lsa ham putr yetishi ko'pchilik olimlar tomonidan ta'n olinga qarashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Türk Ceza Kanunu. Madde-6,1.baskı. – Ankara.:2017. – S.
2. Durmuş A.A. Memur.Disiplin.Hukuku,5.Bası. – Ankara.: Adalet Yayınevi,2009. – S.49.
3. Devlet Memurları Kanunu. Madde 36. //Resmi Gazete. №. 12056. – Ankara.:1965. –S. 36.
4. <https://tr.wikipedia.org/wiki/Yarg%C4%B1>
5. Arslan Ç. Yüce Divan Olarak Anayasa Mahkemesi. – Nobel Yayın Dağıtım, 1999. – S. 38.